

### NAFAS YETISHMOVCHILIGI. DARAJALARI, BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakuteti 4-kurs talabalari

**Boliyev Islomjon Baxtiyarovich Abdukarimova Mohinur Abdialim qizi**

**Abdisalomova Vazira A'zam qizi Sanaeva Sumbul Baxtiyorovna**

**To'layev Bobur Zoyir o'g'li**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bemorlarda nafas yetishmovchiligi hamda ularni mexanizimi keng keltirilgan bo'lib zaruriyatda tibbiyot hodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar yoritilgan .Nafas yetishmovchiligidagi bemorlarda tashqi ko'rinish va ichki a'zolarda bo'ladigan o'zgarishlarni ifodalashga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:**O'tkir nafas yetishmovchiligi, gipoksiya, Bronx, shok,tomir ichki hajmi, tromb ,embol,kasalligi davolash usullari va h.k.

O'tkir nafas yetishmovchiligi bu o'pkalarda havoning so'rilmay qolishi yoki tashqi muhitdan havoning kirmay qolishi natijasida rivojlanadigan kassalik hisoblanadi. Bunda o'pkalar yetarlicha kislorod bilan ta'minlanmay qoladi bu organizimda qonda kislorod kamayishiga ichki a'zolardagi bo'ladigan jarayonlarga yurak faoliyatiga qattiq ta'sir ko'rsatadi.Miyada kislorod yetib bormaganligi sababli gipoksiya hosil bo'ladi.

Pnevmoniyada kasalligida alveolalar darajasida kapillyarlar membranalaridan qonga kislorod o'tib turishining buzilishi, shuningdek, ular orqali gazlar almashuvi (gazlar perfuziyasi V3 diffuziyasi) ning izdan chiqishi sabab bo'lishi mumkin.

O'tkir nafas yetishmovchiligidagi bir vaqting o'zida 3 ta jarayon izdan chiqishi kuzatiladi;

- 1.O'pkalarda gazlar almashinushi buzilishi-Ventilyatsion
- 2.Perfuziya
- 3.Diffuziya.

Ushbu nafas yetishmovchiligi jarayonlari natijasida 2 ta tur paydo bo'ladi

1.Parenximatoz

2.O'pkadan tashqari shakli.

Bu holatlarda qonning kislorod bilan to'ynishi ham, undan karbonat angidrid gazining ajralib chiqishi ham qiyinlashib qoladi. Bu holat O<sub>2</sub> simob ustuni hisobida 60 mm dan kam bo'lganida arterial gipoksemya, O<sub>2</sub> 45 mm dan yuqori bo'lganida giperkapniya boshlanadi.

## VOLUME-2, ISSUE-2

O'tkir nafas yetishmovchiligining parenximatoz shakli o'pka parenximasida sezilarli o'zgarishlar paydo bo'lib, o'pka ventilyatsiyasi qon oqimi bilan mos kelmay qolgan hollarda boshlanadi. Arterial gipoksemiyaga javoban boshlanadigan giperventilyatsiya orgamizmdan tegishlicha yoki hatto ortiqcha miqdorda karbonat angidrid gazi ajralib chiqishiga olib keladi. O'tkir nafas yetishmovchiligining bu shakli bronxlarda ortiqcha sekret hosil bo'lib, uni tashqariga chiqarib tashlaydigan mexamzmlar susayib qolgan va ateletazlar paydo bo'lgan sharoitlarda boshlanadi.

Aholi orasida nafas yetishmovchiliği 2 xil fonda uchraydi ;

Patologik va Fiziologik. Fiziologik nafas yetishmovchiliği jismoniy mashq qilganda,sport bilan shug'ullanganda bazi hollarda aqliy mehnat va qo'rquv-hayajon paytida rivojlanishi mumkin.Patologik ko'pincha yurak va o'pka kassaliklarida paydo bo'lishi kuzatiladi.

Nafas yetishmovchiliği muddatiga ko'ra 2 ga;

1.O'tkir nafas yetishmovchiliği

2. Surunkali nafas yetishmovchiligidagi bo'linadi.

O'tkir nafas yetishmovchiliği tez boshlanib qisqa muddat davom etadi 1 kundan 3 kungacha bo'lishi mumkin.Bu aholi orasida ko'p uchraydi ;alergiya,tashvish-qo'rquv ,hayajon ,shamollah va gripp fonida paydo bo'ladi. Yurak xuruji, nafas yo'llarining to'satdan torayishi yoki qon ivishi (o'pka emboliyasi) kabi jiddiy sharoitlar ham o'tkir nafas qisilishiga olib kelishi mumkin.O'tkir nafas yetishmovchiligidagi bronx daraxtlari kengayishi ularda balg'am, qon, havoning tiqilib qolishi qon ketishi va o'pkalar kolapslarida paydo bo'lishi mumkin.

Surunkali nafas yetishmovchiliği uzoq vaqt bir necha hafta va undan ko'p muddat davom etadigan yoki yana qayta huruj qiladigan kasallik. Astma, yurak yetishmochiligi O'pkalarda bo'ladigan strukturaviy o'zgarishlar, tuberkulyoz va pnevmoniya kasaliglarida uchraydi bu o'tkirga qaraganda biroz havfsiz o'lim sodir bo'lmaydi bunda odam ko'pincha moslashgan holatda bo'ladi.

O'tkir nafas yetishmovchiligidagi bemorda tez fursadda paydo bo'lib agar yetarlicha yordam qilinmasa o'lim bilan tugaydi.

Nafas qisilishi odamda va unga nima sabab bo'lganiga qarab farq qilishi mumkin. Ba'zida u boshqa alomatlar bilan birga keladi.

Nafas qisilishining ayrim belgilariga quyidagilar kiradi:

Ko'krak qafasining siqilishi.

O'zingizni chuqr nafas olishga majburlashingiz kerakligini his qilasiz.

Chuqr nafas olish uchun qattiq ishlash.

Tez nafas olish (taxipnea) yoki yurak urishi ( yurak urishi ).

Shovqinli nafas olish.

Teri rangi ko'karishi yoki oqarish.

Bosh aylanishi va holsizlik.

Bemorlarga 1-yordam ko'rsatish. Agarda bemorda nafas qisilishi alomatlari bo'lsa dastlab ochiqroq havoga olib chiqish tavsiya etiladi yoki o'sha xona derazalari ochiladi. Bemor kiyimlari yechilib yengilashtiriladi lekin shuni yodda tutish keraki bazi kasalliklarda bemorni holatini o'zgartirish mumkin emas tezda tez tibbiy yordamga murojat qilinadi shuni aytamizki bemorni ahvoli va klinikasiga alohida e'tibor berilishi kerak .

O'tkir nafas yetishmovchiligin davolashda kerakli don-darmonlar bilan birga yetakchi o'rinni oksigenoterapiya egalaydi. Kislorod bilan davolashda albatta iliq, namlangan kislorod berish tavsiya etiladi, ya'ni par-kislorodli ingalyatsiya tavsiya qilinadi.

Bemorlarda shoshilinch hollarda astma hurujlarida salbutamol berish tavsiya etiladi. Tez yordamda Eufillin ancha samara beradi

Xulosa qilib aytganda nafas qisilishi odatiy holat emas hayot uchun havfli holat bolishi mumkin agarda ushbu belgilar sizda paydo bo'lsa mutaxasisiga uchrash tavsiya etiladi. Dori preparatlarni va davolash muolajalarini o'ziga o'zi olish tavsiya etilmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Bolalar kasalliklari propedevtikasi. Qoraxojayev.B.
2. Bolalar kasalliklari. Daminov T.A., Xalmatova B.T., Boboeva U.R.
3. Internet adabiyotlari.
4. Asfandiyorov, J., Bozorova, G. Z., Sunnatullayeva, M., Qodirov, M., &
5. Aminova, M. (2022). JIGAR IMMUNITETI VA UNING INSON SOG 'LIG 'I
6. UCHUN AHAMIYATI. Solution of social problems in management and
7. economy, 1(4), 17-19.
8. 22. Choriyeva, Z., Asfandiyorov, J., Aminova, M., Sunnatullayeva, M. and
9. Tojiddinov, D., 2022. QANDLI DIABET KASALLIGI HAQIDA MA'LUMOT.
10. QANDLI DIABET KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA USHBU
11. KASALLIKDA KO 'RILADIGAN CHORA TADBIRLAR. Theoretical aspects
12. in the formation of pedagogical sciences, 1(4), pp.96-99.
13. 23. Asfandiyorov, J., Fozilov, N., Tojiddinov, D., & Sultonmirzayev, X. (2022).
14. BIOLOGIK MEMBRANALAR HAQIDA TUSHUNCHА. BIOLOGIK
15. MEMBRANALARNING VAZIFASI HAMDA AHAMIYATI.